



BUXORO VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI

BUXORO VILOYATIDA FAN VA INNOVATSIYALARNING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

2023- YIL UCHUN

FAN VA INNOVATSIYA

ILMIY TADQIQOT VA TAJRIBA-KONSTRUKTORLIK ISHLANMALARI (ITTKI)

Bu bilimlarni oshirish maqsadida olib boriladigan va shu bilan birga insoniyat, madaniyat va jamiyat haqidagi bilimlarni oshirishga qaratilgan ijodiy faoliyatdir.

ITTKI atamasi uchta faoliyat turini o'zida qamrab oladi:



fundamental tadqiqotlar



amaliy tadqiqotlar



ilmiy-texnik ishlanmalar

INNOVATSIYA

Yangi yoki takomillashtirilgan mahsulot, xizmat, texnologiya yoki tashkiliy yechimning paydo bo'lishi va bozorda ilgari surilishiga olib keladigan ilmiy-texnik faoliyat natijasi xisoblanadi.

INNOVATSIYANING MINIMAL BELGISI

Bu korxona amaliyotida mahsulot, jarayon, marketing hamda tashkiliy usullar yangi yoki qisman takomillashtirilgan bo'lishi, ya'ni boshqa korxonalarda aniq bu innovatsiyani ishlatish mumkinligi, lekin ushbu korxona uchun u yangi bo'lishi lozim.

Существуют три концепции новизны в инновациях:



tashkilot uchun yangi



ichki bozor uchun yangi




butun dunyo uchun yangi bo'lishi kerak

BUXORO VILOYATIDA OLIY TA'LIMDAN KEYINGI TA'LIM TIZIMI – TAYANCH DOKTORANTURA

Tayanch doktoranturasi mavjud tashkilotlar soni *(tegishli yil uchun, birlik)*


2023-yil oxiriga oliy ta'limdan keyingi ta'lim tizimi-tayanch doktoranturasi mavjud tashkilotlar soni 5 tani tashkil etib, ularning barchasi oliy ta'lim tashkilotlarida. Barchasi joylashuvi bo'yicha Buxoro shahriga to'g'ri keladi.

2023-yil 1-yanvar holatiga falsafa doktori darajasi izlanuvchilari soni 407 tadan iborat. Qabul qilingan falsafa doktori izlanuvchilari 212 kishini tashkil etadi. Bitiruvchi falsafa doktori izlanuvchilari soni 130 tadan iborat. Jami bitiruvchilar sonidan dissertasiya himoya qilganlar esa 57 kishini tashkil etdi.



BUXORO VILOYATIDA TAYANCH DOKTORANTURAGA QABUL QILINGAN, TAHSIL OLAYOTGAN VA BITIRGANLAR SONI

Qabul qilingan falsafa doktori darajasi izlanuvchilari soni (tegishli yil uchun, kishi)




Buxoro shahri



212

2023- yil uchun

Tahsil olayotgan falsafa doktori darajasi izlanuvchilari soni (tegishli yil uchun, kishi)




Buxoro shahri



407

2023- yil uchun

Bitirgan falsafa doktori darajasi izlanuvchilari soni (tegishli yil uchun, kishi)



Buxoro shahri



130

2023- yil uchun

BUXORO VILOYATIDA OLIY TA'LIMDAN KEYINGI TA'LIM TIZIMI –DOKTORANTURA

Doktoranturasi mavjud tashkilotlar soni *(tegishli yil uchun, birlik)*

2023-yil oxiriga oliy ta'limdan keyingi ta'lim tizimi-doktoranturasi mavjud tashkilotlar soni 4 tani tashkil etib, ularning barchasi oliy ta'lim tashkilotlarida. Barchasi joylashuvi bo'yicha Buxoro shahriga to'g'ri keladi.


2023-yil 1-yanvar holatiga fan doktori darajasi izlanuvchilari soni 27 tadan iborat. Qabul qilingan fan doktori darajasi izlanuvchilari 14 kishini tashkil etadi. Bitiruvchi fan doktori darajasi izlanuvchilari soni 4 tadan iborat. Jami bitiruvchilar sonidan dissertasiya himoya qilganlar esa 2 kishini tashkil etdi.

Doktoranturasi mavjud tashkilotlar sonini hududlar kesimida taqsimlanishi *(2023- yil uchun, birlik)*



BUXORO VILOYATIDA DOKTORANTURAGA QABUL QILINGAN, TAHSIL OLAYOTGAN VA BITIRGANLAR SONI

Qabul qilingan fan doktori darajasi izlanuvchilari soni (tegishli yil uchun, kishi)




Buxoro shahri



2023- yil uchun

Tahsil olayotgan fan doktori darajasi izlanuvchilari soni (tegishli yil uchun, kishi)




Buxoro shahri



2023- yil uchun

Bitirgan fan doktori darajasi izlanuvchilari soni (tegishli yil uchun, kishi)




Buxoro shahri



2023- yil uchun

BUXORO VILOYATIDA ITTKIning BAJARILISHI

ITTKIni bajargan tashkilotlar sonini hududlar kesimida taqsimlanishi (2023- yil uchun, birlik)



ITTKIni bajargan tashkilotlar sonini ish turlari bo'yicha taqsimlanishi (2023- yil uchun, birlik)

ITTKINI BAJARGAN TASHKILOTLAR *



ilmiy
tadqiqotlar
(ilmiy tadqiqot
ishlari)

9



loyiha-
konstruktorlik
va texnologik
ishlar

1



tajribaviy nusxa-
namuna,
partiyalar,
buyumlar
(mahsulotlar)
tayyorlash

1



qurilish uchun
loyiha ishlari

-



ilmiy-texnik
xizmatlar



6

* Ish turlari bo'yicha ITTKIni bajargan tashkilotlar sonining yig'indisi ularning umumiy soniga teng emas, chunki bitta tashkilot bir necha turdagi ishlarni bajarishi mumkin.

BUXORO VILOYATIDA KORXONA VA TASHKIOTLARNING INNOVATSION FAOLIYATI

**O'z kuchi bilan innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar
ishlab chiqargan korxona va tashkilotlar sonini hududlar
va iqtisodiy faoliyat turlari kesimida taqsimlanishi ***
(2023- yil uchun, birlik)

Jami
326 ta




* Innovatsion ishlarni amalga oshirgan fermer xo'jaliklarini qo'shgan holda

BUXORO VILOYATIDA O'Z KUCHI BILAN BAJARILGAN VA SOTILGAN INNOVATSION MAHSULOTLAR, ISHLAR VA XIZMATLAR HAJMI

**2023-yilda hududlar bo'yicha oxirgi uch yil ichida yangi joriy
qilingan yoki sezilarli texnologik takomillashtirilgan
mahsulotlar, ishlar, xizmatlar hajmi.**

(2023-yil uchun, mln. so'm)



* Innovatsion ishlarni amalga oshirgan fermer xo'jaliklarini qo'shgan holda

STATISTIK KO'RSATKICHLARGA IZOH

Oliy ta'limdan keyingi ta'lim doktorlik dissertatsiyasini tayyorlash va ximoya qilish maqsadida mutaxassislikni chuqur o'rganishni va ilmiy izlanishlar olib borishni nazarda tutadigan tayanch doktorantura, doktorantura va mustaqil izlanuvchanlik asosida ilmiy darajaga ega ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashni ta'minlaydi.

Tayanch doktorantura falsafa doktori (Doctor of Philosophy (PhD) ilmiy darajasiga da'vogar izlanuvchilar uchun ishlab chiqarishdan ajralgan holda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosligi bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'lim shakli hisoblanadi.

Doktorantura fan doktori (Doctor of Science (DSc) ilmiy darajasiga da'vogar izlanuvchilar uchun ishlab chiqarishdan ajralgan holda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosligi bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'lim shakli hisoblanadi.

Mustaqil izlanuvchilik falsafa doktori (Doctor of Philosophy (PhD) yoki fan doktori (Doctor of Science (DSc) ilmiy darajalariga da'vogar izlanuvchilar uchun ishlab chiqarishdan ajralmagan holda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosligi bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'lim shakli hisoblanadi.

Ilmiy-tadqiqot xodimlari – ijodiy faoliyati tizimli ravishda ilmiy bilimlar hajmini oshirishga va ushbu bilimlarni qo'llashning yangi yo'nalishlarini topishga qaratilgan, shuningdek ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarni amalga oshirish bilan bevosita bog'liq xizmatlar ko'rsatadigan jismoniy shaxslar.

Innovatsiyalarning to'rt turi mavjud: mahsulot, jarayon, marketing va tashkiliy innovatsiyalar.

Mahsulot va jarayon innovatsiyalari **texnologik innovatsiyalar** hisoblanadi.

Mahsulot innovatsiyalari bu – ma'lum bir korxonada ishlab chiqarishga kiritilgan xususiyatlari yoki foydalanish usullari bo'yicha yangi yoki sezilarli darajada yaxshilangan mahsulotlar (tovarlar yoki xizmatlar).

Jarayon innovatsiyalari – ishlab chiqarish, logistika va mahsulotni yetkazib berishda texnologik jihatdan yangi yoki sezilarli darajada takomillashtirilgan usullarni ishlab chiqish va joriy etishni, shu jumladan barcha texnologik jarayonlarga dasturiy ta'minotni joriy etishni o'z ichiga oladi.

Marketing innovatsiyasi – yangi yoki sezilarli darajada takomillashtirilgan marketing usullarini amalga oshirish.

Tashkiliy innovatsiyalar – biznes yuritishda, ish joylarini tashkil qilishda yoki tashqi aloqalarda yangi usullarni joriy etishga qaratilgan.

Press-relizni tayyorlash uchun mas'ul:

**Buxoro viloyati statistika boshqarmasi
Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi**



Manzil: Buxoro shahri S.Ayniy
kuchasi 3-uy



www.buxstat.uz



Tel.: +99865 223-81-65



facebook.com/uzstataxborot



e-mail: cots1706@stat.uz



<https://t.me/uzstataxborot>